



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

PEDAGOGIK JARAYONDA BILIMNI BAHOLASH MEZONLARINING AMALIY QO‘LLANISHI

Umarova Shaxnoza Maxmudjanovna
Toshkent Amaliy fanlar universiteti, (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimni baholashning pedagogik va amaliy asoslari yoritilgan. Unda baholashning zamonaviy yondashuvlari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini aniqlashga xizmat qiluvchi metod va vositalarning amaliy qo'llanilishi tahlil etiladi. Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishda diagnostik, formatif va summativ baholash tizimining o'rni hamda baholash mezonlarini pedagogik jarayonga tatbiq etishning afzalliklari ko'rib chiqiladi. Maqolada o'quvchilar bilimni xolis va samarali baholash orqali ularning mustaqil fikrlashi, o'quv motivatsiyasi hamda ta'lim natijalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, nutq, ko'nikma, motivatsion omillar, kommunikativ rivojlanish, og'zaki muloqot.

ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

Умарова Шахноза Махмуджановна
Ташкентский университет прикладных наук, (PhD)

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические и практические основы оценки знаний учащихся в образовательном процессе. Анализируются современные подходы к оценке, практическое применение методов и инструментов, служащих для определения знаний, навыков и компетенций учащихся. Также рассматривается роль диагностических, формирующих и итоговых систем оценки в повышении эффективности обучения, а также преимущества применения критериев оценки в педагогическом процессе. Особое внимание в статье уделяется развитию самостоятельного мышления, мотивации к обучению и образовательных результатов посредством объективной и эффективной оценки знаний учащихся.

Ключевые слова: начальное образование, речь, умения, мотивационные факторы, коммуникативное развитие, устное общение..

PRACTICAL APPLICATION OF KNOWLEDGE ASSESSMENT CRITERIA IN THE PEDAGOGICAL PROCESS

Umarova Shaxnoza Maxmudjanovna
Tashkent University of Applied Sciences, PhD

Abstract

This article discusses the pedagogical and practical foundations of assessing students' knowledge in the educational process. It analyzes modern approaches to assessment, practical application of methods and tools that serve to determine students' knowledge, skills and competencies. It also considers the role of diagnostic, formative and summative assessment systems in improving educational effectiveness, and the advantages of applying assessment criteria to the pedagogical process. The article pays special attention to the development of independent thinking, learning motivation and educational outcomes through objective and effective assessment of students' knowledge.

Keywords: elementary education, speech, skills, motivational factors, communicative development, oral communication..

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish murakkab va yuqori mas'uliyat talab etadigan jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, o'quvchilar ishtirokidagi tadqiqotlarda tajriba-sinov ishlari aniq reja va ilmiy asoslangan dasturga tayangan holda olib borilishi zarur. Bunda pedagogik hamda psixologik qonuniyatlar, ta'lim muhiti va mavjud sharoitlar to'liq inobatga olinadi. Ilmiy tadqiqot dasturi tajriba-sinov ishlarining maqsadi, mazmuni va izchilligini belgilab beradi. Shu bilan birga, u mavzuning dolzarbligi, ijtimoiy hamda amaliy ahamiyatini asoslashga, ilgari surilgan ilmiy farazning ishonchliligini tekshirishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov jarayonida tadqiqot natijalari amaliyotda sinovdan o'tkaziladi, ularning samaradorligi aniqlanadi va turli pedagogik sharoitlarda qay darajada natija berishi tahlil qilinadi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, matematik-statistik usullar asosida baholanadi. Ma'lumki, amaliyot ilmiy bilishning asosiy mezoni hisoblanadi. Shu sababli ilmiy tadqiqot natijalari nazariy jihatdan emas, balki amaliy faoliyat orqali ham o'z tasdig'ini topishi lozim.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari aynan ilmiy g'oya va yondashuvlarning real ta'lim jarayonidagi samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini aniqlashda tajriba-sinov ishlari ekspertiza vazifasini bajaradi. Tadqiqot argumenti tajriba-sinov ishlarining natijasiga asosan ifodalanadi. Ilmiy tadqiqotni argumentlash, g'oyaviy aksioma tajriba-sinov ishlarining har xil variantda, har xil sharoitda o'tkazilganiga bog'liq. Pedagogik tadqiqotda subyektiv tavsiyalar o'tgan asrda ta'lim-tarbiya tizimini inqirozga olib bordi. Pedagogik tadqiqotlarni argumentlash tajriba-sinov ishlari dasturining tarkibiy qismidir.

Bir necha variantda, turli shart-sharoitlarda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari tajriba va nazorat guruhlarida sinab ko'riladi. Uzoq muddatli tajribada har bir bosqichda bajariladigan kuzatish tajriba-sinov ishlari tartibi belgilanadi. Tajriba guruhlarini xususiyatiga ko'ra bir yoki bir necha bosqichli tajriba-sinov ishlari rejalashtiriladi. Tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirishda mantiqiy xulosalar bilan birga matematik-statistik tahlil asosida argumentli konsepsiyalar ishlab chiqiladi.

Jamiyatda faol ishtirok etish uchun insondan samarali muloqotga kirisha olish, o'z fikrini aniq va asosli ifodalash, jamoa oldida chiqish qilish, axborotni tushunarli yetkazish kabi muhim ko'nikmalar talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini xolis hamda samarali baholash dolzarb pedagogik masalalardan biri sanaladi. Ayniqsa, matematik bilimlarni baholash jarayoni o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarda to'g'ri yechim topish kompetensiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

O'quvchilar bilimni baholash masalasi pedagogika va ta'lim metodikasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur muammo yuzasidan ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda baholash jarayoni faqatgina bilimni nazorat qilish vositasi emas, balki o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida talqin etiladi.

Pedagogika nazariyasida baholashning ilmiy asoslari haqida Jan Piaget, Lev Vygotsky, Benjamin Bloom kabi olimlarning qarashlari muhim o'rin tutadi. Xususan, Bloomning ta'lim maqsadlari taksonomiyasi o'quvchilarning bilim, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, umumlashtirish va baholash kabi kognitiv faoliyat bosqichlarini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv bugungi kunda o'quvchilarning matematik bilim va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqishda keng qo'llanilmoqda.

Shuningdek, Lev Vygotsky tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi o'quvchilarning bilish faoliyatini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Olimning fikricha, ta'lim jarayonida baholash o'quvchining nafaqat mavjud bilim darajasini, balki uning rivojlanish imkoniyatlarini ham aniqlashi lozim. Bu esa zamonaviy formatif baholash tizimining shakllanishiga asos bo'lgan.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda formatif va summativ baholashning nazariy hamda amaliy jihatlari keng o'rganilgan. Ayniqsa, Paul Black va Dylan Wiliam tadqiqotlarida formatif baholashning o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ularning tadqiqotlarida baholashning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishi hamda o'qishga motivatsiyasini oshirishi ta'kidlangan.

Mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida ham o'quvchilar bilimni baholashning pedagogik asoslari alohida tadqiq etilgan. O'zbekistonlik metodist olimlar tomonidan kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash mezonlarini ishlab chiqish, aniq fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish hamda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini oshirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy baholash texnologiyalarining ahamiyati alohida qayd etiladi.

So'nggi yillarda xalqaro baholash dasturlari, jumladan, Programme for International Student Assessment va Trends in International Mathematics and Science Study tadqiqotlari natijalari ham

o'quvchilarning matematik kompetensiyalarini baholashga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi. Ushbu dasturlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini emas, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini aniqlashga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida baholash jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar bilimini baholash jarayonini takomillashtirish, ayniqsa, aniq fanlar darslarida mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tizimlarni ishlab chiqish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning matematik bilim va malakalarini baholashning innovatsion usullarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlarni yanada kengaytirish zarurligi aniqlanadi.

Tahlil va natijalar

Shuningdek, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, o'z qarashlarini og'zaki va yozma shaklda ravon, izchil hamda ta'sirchan ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda baholash tizimi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, balki ularning intellektual salohiyati, ijodiy fikrlashi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Shu bois zamonaviy ta'lim jarayonida barkamol, ma'naviy yetuk va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashda samarali baholash mexanizmlarini joriy etish muhim pedagogik omil sifatida e'tirof etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'lim tizimida tadqiq etilishi zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biri o'quvchilarda aniq fanlarni o'rganish jarayonida mustaqil va mantiqiy fikrlash, o'z fikrini nutq vaziyatiga mos ravishda aniq hamda ravon ifodalash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Mazkur jarayonda o'quv materiallari asosida samarali pedagogik tizim yaratish, uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning zamonaviy metodik yondashuvlarini ishlab chiqish hamda amaliy sinovdan o'tkazish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi.

Tadqiqot doirasida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari bir necha bosqich asosida amalga oshirildi. Jumladan, tayyorlov bosqichi tajriba-sinov jarayonining eng muhim va samarali bosqichlaridan biri bo'lib, unda kuzatishlar asosida ilgari surilgan ilmiy g'oyalar, metodik tavsiyalar hamda ishlab chiqilgan o'quv topshiriqlarining samaradorligi aniqlab borildi.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi o'quvchilarning matematik bilim va malakalarini baholash jarayonini takomillashtirish, shu bilan birga, ularda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo'ldi. Shuningdek, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini boyitish, so'z boyligini oshirish hamda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning didaktik imkoniyatlari o'rganildi va ular asosida ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tajriba jarayonida o'quvchilarning darslik materiallarini o'zlashtirish darajasi tahlil qilindi hamda aniq fanlar o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi baholandi. O'quvchilarning bilim darajasi anketa so'rovlari, matnlar va mavzular asosida aniqlanib, olingan natijalar umumlashtirildi. Tadqiqot davomida quyidagi jihatlar alohida o'rganildi:

– o'quvchilarning matematik bilim va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish va aniqlashtirish;

– aniq fanlar darslarida darsliklar hamda ko'rgazmali vositalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;

– o'qituvchilarning baholash jarayonidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash;

– mashq va topshiriqlar orqali matematik bilimlarni baholashga nisbatan o'quvchilarning munosabatini o'rganish maqsadida anketa-so'rovlar o'tkazish hamda natijalarni umumlashtirish.

Mazkur tajriba-sinov ishlari asosida o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini baholashning samarali metodik tizimini yaratish imkoniyatlari belgilab olindi.

2. Ta'kidlovchi tajriba-sinov bosqichida dastlabki tahlillar natijasida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik usul, shakl hamda vositalar belgilab olindi. Shu asosda o'quvchilarning matematik bilim va malakalarini baholash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashq va topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi hamda ularning mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi takomillashtirildi.

Ijodiy izlanishga yo'naltirilgan topshiriqlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoni tahlil qila olishi, masalalarni tez va samarali yechishi hamda o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda mazmunli ifodalashiga alohida e'tibor qaratildi. Chunki zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarda mustaqil tafakkur, mantiqiy mushohada yuritish va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli aniq fanlar darslari jarayonida o'quvchilarning fikr mahsulini

nutq vaziyatiga mos, aniq va izchil ifodalash malakalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlardan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida ilgari surilgan ilmiy farazlar amaliy jihatdan tekshirilib, ularning samaradorligi tasdiqlandi. Jumladan:

- aniq fanlar darslarida qoʻllanilgan topshiriqlar oʻquvchilarning matematik bilim va malakalarini baholash kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi;
- matematik bilimlarni baholash jarayonidagi mavjud kamchiliklar va ularning kelib chiqish sabablari oʻrganilib, ularni bartaraf etishning samarali usullari ishlab chiqildi;
- oʻquvchilarda mantiqiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinib, ularni taʼlim jarayoniga metodik jihatdan samarali tatbiq etish yoʻllari belgilandi;
- aniq fanlar darslari orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning mazmuni, metodlari, shakl va vositalari tizimlashtirildi;
- oʻquvchilarning matematik bilim va malakalarini baholash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda oʻz fikrini turli nutq vaziyatlarida ravon ifodalash koʻnikmalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi va ularning samaradorligi tajriba asosida tasdiqlandi.

3. Shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida tadqiqot maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan bir qator vazifalar bajarildi. Jumladan, pedagoglar ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar mazmuni bilan tanishtirildi hamda ularni taʼlim jarayoniga tatbiq etish boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar berildi. Shuningdek, tavsiyalar dars jarayonida amaliy sinovdan oʻtkazilib, olingan natijalar asosida ularni yanada takomillashtirish ishlari olib borildi.

Mazkur bosqichda aniq fanlar darslari orqali oʻquvchilarda mantiqiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish, matematik bilim va malakalarni baholash hamda mustaqil ishlash kompetensiyalarini shakllantirishning ayrim yetarlicha oʻrganilmagan jihatlari aniqlandi. Shu asosda kelgusida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun metodik tavsiyalar va amaliy xulosalar ishlab chiqildi. Tajriba-sinov natijalari shuni koʻrsatdiki, ayrim oʻquvchilarda fikrni aniq va izchil ifodalay olmaslik, mantiqiy mushohada yuritishda qiynalish hamda matematik amallarni bajarishda chalkashliklarga yoʻl qoʻyish kabi kamchiliklar uchraydi. Bu esa oʻquvchilarning mantiqiy tafakkuri va matematik kompetensiyalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan metodik yondashuvlarni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Maʼlum boʻlishicha, oʻquvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish va matematik bilimlarni samarali baholash koʻp jihatdan darslarning tashkil etilish darajasi hamda oʻqituvchining pedagogik mahoratiga bogʻliqdir. Tajriba-sinov jarayonida ayrim oʻqituvchilarning aniq fanlar darslari orqali oʻquvchilarda mantiqiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish boʻyicha yetarli metodik tayyorgarlikka ega emasligi kuzatildi. Hatto tajribali pedagoglar ham interfaol metodlardan foydalanib darsni qiziqarli tashkil eta olsalar-da, baʼzi hollarda oʻquvchilarda matematik bilim va malakalarni baholash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish hamda amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga yetarli darajada erisha olmayotganligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, aniq fanlar darslarida oʻquvchilarning mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va matematik kompetensiyalarini rivojlantirish koʻp jihatdan oʻqituvchining pedagogik mahorati hamda darsni samarali tashkil eta olishiga bogʻliqdir. Tajriba-sinov natijalari ayrim oʻqituvchilarda matematika taʼlimining asosiy maqsad va vazifalari yuzasidan metodik tushunchalar yetarli darajada shakllanmaganligini koʻrsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni. — URL: Lex.uz
2. Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standarti // Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.
3. Axmedova M.E. Umumiy pedagogika: darslik. — Toshkent: Zuxra Baraka Biznes MCHJ, 2023
4. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. — Toshkent: Akademya, 2020. — 252 b.
5. Pedagogika ensiklopediyasi. I jild. — Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2015. — 318 b.
6. Xalqaro tadqiqotlarda oʻquvchilarning oʻqish savodxonligini baholash (ona tili va adabiyot fani oʻqituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qoʻllanma) / Taʼlim inspeksiyasi huzuridagi Taʼlim sifatini baholash boʻyicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. — Toshkent, 2019. — 92 b.